



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 14-fevral, № 33 (8656)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



VENGRIYANING “OTP” GURUHI BILAN STRATEGIK SHERIKLIKNI KENGAYTIRISH REJALARI QO'LLAB-QUVVATLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 13-fevral kuni
Vengriyaning eng yirik “OTP” banki boshqaruvi raisi Shandor Chanini qabul qildi.



Uchrashuvda bank-moliya sohasidagi, shu jumladan, “OTP” guruhiga davlatning “Ipoteka-bank”dagi ulushini sotish bo'yicha bitim doirasidagi hamkorlikning ijobiy sur'ati mamnuniyat bilan qayd etildi.

Davlatimiz rahbari bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali ularning sifatini oshirish, kichik va oilaviy biznes uchun innovatsion va hamyonbop moliyaviy mahsulotlarni joriy qilish, xodimlarni Yevropaning eng namunal amaliyotlariga o'qitish muhimligini ta'kidladi.

Vengriyaning yetakchi kompaniyalari bilan, shu jumladan, Toshkent viloyatida ular uchun tashkil etilayotgan maxsus iqtisodiy zona negizida qishloq xo'jaligi, vinochilik, irrigatsiya, kimyo, farmatsevtika va sanoatning boshqa tarmoqlarida kooperatsiyani yanada chuqurlashtirish masalalari ko'rib chiqildi.

Shandor Chani, o'z navbatida, Vengriya biznesi mamlakatimiz bozoridagi faoliyatini jadal kengaytirishga tayyorligini tasdiqladi.

Uchrashuv yakunida “OTP” banki boshqaruvi raisi uning faoliyatiga berilgan yuksak e'tirof hamda o'ziga davlat mukofoti — “Do'stlik” ordeni topshirilgani uchun O'zbekiston yetakchisiga chuqur minnatdoriik bildirdi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

JORIY YILGA MO'LJALLANGAN STRATEGIK ISLOHOTLAR TAQDIMOT QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev
13-fevral kuni joriy yilda amalga
oshirish mo'ljalangan
asosiy strategik islohotlar bo'yicha
taqdimot bilan tanishdi.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasida 2030-yilga borib, mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmini 160 milliard dollarga, aholi jon boshiga daromadni 4 ming dollarga yetkazib, bu borada o'rtachadan yuqori davlatlar qatoriga kirish maqsadi belgilangan. Buning uchun iqtisodiyotda transformatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish, investitsiya va biznes muhitini yanada yaxshilash, qishloq xo'jaligida yuqori qo'shilgan qiymatni ta'minlash zarur.

Taqdimotda shu boradagi 5 ta muhim soha — transport, urbanizatsiya va shaharsozlik, tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi va energetikadagi islohotlar ko'rib chiqildi.

Iqtisodiyot rivoji uchun bosh omillardan biri bu — transport imkoniyatlari. Mamlakatimiz dengiz yo'llaridan uzoqligi sababli avia va temir yo'llarni diversifikatsiya qilishga urg'u berilmoqda. O'tgan yili 6 ta aviakompaniya tashkil qilindi, 28 ta yangi samolyot olib kelindi. Samarqand xalqaro aeroportiga xususiy sektor jalb etildi.

Bu ishlarni davom ettirib, “Uzbekistan Airports” va “Uzbekistan airways” kompaniyalari transformatsiyasini jadallashtirish, aeroportlar boshqaruvi xususiy sektorga berishni kengaytirish zarur.

Hududlarda moliyaviy xizmatlar, elektron tijorat, masofaviy ta'lim va tibbiyot xizmatlari rivojlanishi uchun sifatli internet ham muhim.

Kelgusi yetti yilda yurtimizda aholisi 300 mingdan ko'p bo'lgan shahar va tumanlar soni hozirgi 13 tadan 28 taga yetadi. Ayrim shahar va shaharchalarning bosh rejalari yo'qligi sababli faqat eniga kengaymoqda. Bu infratuzilma xarajatlari oshishiga va qishloq xo'jaligi yerlari kamayishiga olib kelmoqda. Shu bois urbanizatsiya jarayonlarini tartibga solish bo'yicha konsepsiya va qonun ishlab chiqishga ehtiyoj bor.

Biznesga yanada qulay muhit yaratish uchun yo'l, ichimlik suvi, ta'lim, tibbiyot kabi sohalarda davlat-xususiy sheriklik qoidalarini aniq belgilash zarur. Ayni paytda tarmoq va hudud rahbarlari bilan birga bunday loyihalar dasturini ham shakllantirib borish joiz.

Davlatning ayrim funksiyalarini, jumladan, hududlarni obodonlashtirish, erkin iqtisodiy zonalarni boshqarishni xususiy sektorga berish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Qishloq xo'jaligi aholini oziq-ovqat va ish bilan ta'minlashda katta o'rin tutadi. Lekin uning ayrim tarmoqlarida ish tartibi haliyam eskicha. Shu bois hosildorlikni oshirish va tannarxni kamaytirish, sohaga innovatsiyalarni olib kirish bo'yicha aniq yechimlar kerak.

Iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish uchun, eng avvalo, barqaror energiya ta'minoti zarur. Bu yil jami 50 milliard dollarlik 122 ta yangi yirik investitsiya loyihasi boshlanadi. Shu bilan birga, aholi soni va korxonalar ham ko'payib bormoqda. Yaqin yillarda energiyaga ehtiyoj kamida 1,5 barobar oshadi. Buning ustiga, ayrim tarmoqlarda energiya sarfi hamon yuqori.

Davlatimiz rahbari ushbu sohalarga oid takliflar bilan tanishib, ular bo'yicha huquqiy asos va investorlar uchun mustahkam kafolatlar yaratish zarurligini ta'kidladi.

— 2024-yilda bozor iqtisodiyoti poydevorini qurishning barcha jarayonini yakunlab, 2025-yilda milliy iqtisodiyotimizni sifat jihatdan mutlaqo yangi darajaga olib chiqishimiz shart, — dedi Prezident.

Islohotlar jarayoniga mamlakatimizning barcha ilmiy-tadqiqot institutlarini jalb qilib, keng qamrovli “Yo'l xaritasi”ni tayyorlash vazifasi qo'yildi.

O'ZA.

Ustuvor masalalar muhokamasi

Kecha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi va Qonunchilik palatasi Kengashining qo'shma majlisi bo'lib o'tdi. Unda Oliy Majlis palatalari Kengashlari a'zolari, deputatlar, senatorlar va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Qo'shma majlis

Qo'shma majlisda 2024-yilga mo'ljalangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha belgilangan tadbirlarning bajarilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshirish to'g'risidagi masala muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, xususan, makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, investitsiya, eksport hajmlarini kengaytirish, qishloq xo'jaligi, uy-joy, qurilish, kommunal xo'jaligi, transport, ekologiya sohalarini, shuningdek, ta'lim, sog'liqni saqlash, raqamlashtirish, madaniyat va sportni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidentining Farmon va qarorlarida mazkur yo'nalishlarda olib borilayotgan islohotlar samaradorligini oshirishga doir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Muhokama jarayonida 2024-yilga mo'ljalangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha belgilangan tadbirlarning bajarilishi ustidan tizimli parlament nazoratini yo'lga qo'yish, bu borada Oliy Majlis palatalari va xalq deputatlari mahalliy Kengashlari faol ishtirokini ta'minlash masalalariga e'tibor qaratildi.

Tadbirda Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasining 2023-yildagi faoliyati masalasi ham ko'rib chiqildi.



INSON QADRI VA MANFAATLARI BARCHA NARSADAN USTUN

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman)ning 2023-yildagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti eshitildi, shuningdek, intellektual mulk muhofazasini kuchaytirish, Hukumat vakolatlarini kengaytirish hamda a'zolari mas'uliyatini oshirishga qaratilgan bir qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

Davlat dasturi loyihasi yuzasidan muhim takliflar ilgari surildi

Majlisda dastlab parlament quyi palatasining Spikeri N. Ismoilov mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim voqealarga to'xtalib o'tdi.

Qayd etilganidek, 12-fevral kuni Prezidentimiz raisligida mamlakatimizni rivojlantirishda muhim tarmoqlardan biri bo'lgan qishloq xo'jaligida ishga

solinmagan yangi zaxiralarni safarbar etish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida asosiy e'tibor qishloq xo'jaligida unumdorlikni oshirish, tannarxni kamaytirish, suvni tejash masalalariga qaratilib, galdagi ustuvor vazifalar belgilab berildi. Shubhasiz, muhokama qilingan masalalar siyosiy partiyalar fraksiyalari va qo'mitalar yig'ilishlarida ham atroflicha ko'rib chiqiladi hamda tegishli chora-tadbirlar belgilab olinadi.



O'tgan haftaning eng muhim voqealaridan biri — “O'zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi hamda uni tasdiqlash to'g'risidagi Prezident Farmoni loyihasi keng jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgani bo'ldi. Fuqarolar loyihalar muhokamasida faol qatnashib, mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qiladigan qator takliflarni bildirdi.



Xalqaro anjuman

Samarqand forumi – O'zbekistonning ekologik siyosati e'tirofi



CONVENTION ON MIGRATORY SPECIES
COP 14
SAMARKAND
UZBEKISTAN 12-17 FEBRUARY 2024

Samarqandda “Tabiat chegara bilmaydi” shiori ostida Birlashgan Millatlar Tashkilotining yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlab qolishga doir konvensiyasi tomonlar konferensiyasining 14-yig'ilishi davom etmoqda.

Mazkur nufuzli anjumaning ikkinchi kunidagi yalpi sessiyalarda yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlari va ularning yashash joylarini saqlash masalasini hal

qilish bo'yicha transchegaraviy va mintaqaviy hamkorlik harakatlari bilan bog'liq qator mavzular muhokama etildi. Konferensiyada so'zga chiqqanlar mazkur tadbir dunyoda iqlim o'zgarishi kuchayib

borayotgan bugungi sharoitda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidladilar.

Shuningdek, anjuman doirasida “O'zbekiston Respublikasi atrof-muhit holati to'g'risida”gi milliy ma'ruzaning taqdimoti ham bo'lib o'tdi.



14-fevral — Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun

XALQIMIZNING BUYUK FARZANDI

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari, shubhasiz, XV-XVI asrlarga oid ulkan noyob adabiy yodgorliklardan biridir. Ushbu qomusiy asar dunyoning 30 dan ortiq tillariga tarjima qilingani uning ulkan badiiy va ilmiy ahamiyatini ta'kidlaydi. Kitob Boburning butun umri davomida saqlagan shaxsiy kundaliklarining xronologik to'plami ko'rinishida yozilgan. “Boburnoma” — alloma hayotini aks ettirib, ayni paytda tarix, tilshunoslik, etnografiya, tabiatshunoslik va boshqa fanlar uchun qimmatli manba sanaladi.

Ulug' sarkarda, buyuk yozuvchi va olimning hayoti, faoliyati haqida ko'plab roman va qissalar, hikoya va maqolalar yozildi, spektakllar sahnalashtirildi, filmlar tasvirga olindi, lekin ularda, jumladan, darsliklarda Bobur Mirzoning biologiya fani rivojiga katta hissa qo'shgan olim ekani haqida juda kam ma'lumot berildi.

Holbuki, “Boburnoma” ensiklopedik asarida Markaziy Osiyo (Farg'ona vodiysi, Zarafshon vodiysi, Qarshi vohasi hududi), Afg'oniston va Hindistonning o'simlik va hayvonot dunyosi haqida batafsil ma'lumot keltirilgan. Muallif bu hududlardagi muayyan o'simlik yoki hayvon turlarining o'ziga xos xususiyatlarini qisqa,

lekin aniq tavsiflab bergan. Yuzga yaqin mevali o'simliklar va gullarning aniq tasnifini keltirgan. Kitobda o'simlikning tana va shox qismlari, barglarining shakllari, kattaligi va joylashuvi, gullar va mevalarning o'ziga xosligi, o'lchami, rangi va hidi haqida ma'lumot berilgan.



Siroiddin VOHIDOV olgan surat.

O'zbekistonning giyohvandlik moddalarini nazorat qilish bo'yicha sa'y-harakatlari yuqori baholandi

Narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha xalqaro qo'mita (INCB) 2023-yil uchun yillik hisobotini e'lon qildi.

Biz va jahon

Unda O'zbekistonning narkotik moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash va giyohvandlikka qarshi kurash bo'yicha xalqaro konvensiyalarni amalga oshirish borasidagi sa'y-harakatlari yuqori baholangan. Hisobotda Boshqaruv

missiyasining O'zbekistonga tashrifi qayd etilgan bo'lib, unda mamlakatdagi giyohvandlikka qarshi kurash va narkotik moddalarni nazorat qilish bo'yicha uchta xalqaro konvensiyaning amalga oshirilishi holati muhokama qilingan.



